

П-4 ва Гаучо препарати билан чигит дорилаб экилган вариантда уруғпалла барг фазасида 2.2% ниҳол касалланиб сўлиганлиги, ташқи белгилари бўйича 3.0 % ниҳол, ташқи белгиларисиз 9.5 % жами 14.5 % ниҳоллар касалланганлиги кузатилди. П-4 ва Гаучо дориларининг самарадорлиги 85.5 % ни ташкил этди. Ниҳолларнинг 1-2 чин барг фазасида қора илдиз чириш касаллигида дориланмаганда юқорида келтирилган белгилардан ташқари барглarning деформацияга учрагани, ниҳолларнинг 45.3 % и касалланганлиги, шундан 9.1 % сўлиб нобуд бўлгани, 16 % и жиддий, 20.2 % и эса кучсиз даражада касалланганлиги аниқланди. Чигит дорилаб экилганда 1-2 чин барг фазасида 10.7 % ниҳоллар касалланган бўлиб, шундан 1 % и сўлиган, 1.5 % и жиддий, 8.2 % и қисман касалланган. 3-4 чин барг фазасида назоратда 25.5 % ниҳоллар касалланган бўлиб, 4 % и нобуд бўлган, 8.5 % и жиддий 13 % и эса маълум даражада касалланган. Чигит дорилаб экилганда эса атиги 1.6 % ниҳол касалланганлиги аниқланди. Ҳароратнинг кўтарилиши ҳамда агротехник тадбирлар натижасида 5-6 чин барг фазасида касалланган ўсимликлар тузалиб кетганлиги, ўсиши ривожланиши жадаллашганлиги, дориланмай экилганда эса 1.2 % ниҳолларнинг сўлиганлиги, ташқи белгиларига кўра 2.8 %, ташқи белгиларисиз 8.9 %, жами 12.9 % ниҳоллар касалланганлиги аниқланди. Чигит дорилаб экилган вариантда эса ҳароратнинг кўтарилиши билан касалланган ўсимликлар қайд этилмади.

Тажриба натижалари кимёвий таркиби диметилпол –карбамид асосига эга 65% ли П-4 уруғдорисининг самараси юқори (85-86%) эканлигини кўрсатди. П-4 фунгициди билан уруғлик материалларини экишдан 40-50 кун олдин дорилаб, қоғоз қопларда шамоллатиладиган ёпиқ омборда белгиланган намлик ва ҳароратда сақлаб туриш мумкин. Ниҳол униб чиқиш фазасидан шоналашгача зарарлайдиган ширага қарши фунгицид билан ишлов берилган чигитга экишдан 10 кун олдин кимёвий таркиби имидаклоприд асосига эга 70 % ли гаучо инсектициди билан 1 тонна тукли чигитга 4-5 кг меъёрда ишлов бериб экилганда ўсимлик битлари ва бошқа сўрувчи ҳашаротлар таъсирининг йўқолиши аниқланди.

Хулоса шуки, биринчи навбатда экиладиган уруғларни самарадорлиги юқори бўлган уруғдорилагичлар билан белгиланган меъёр ва муддатларда сифатли дорилаш муҳим ҳисобланади. Шунингдек ерни экишга сифатли қилиб тайёрлаш, бунда тупроқнинг зичлашиб кетишига йўл қўймаслик, чигит экиш муддатига ва экиш чуқурлигига қатъий риоя қилиш ва чигитни тупроғи етилган далаларга экиш, баҳор серёгин келган йилларда қатқалоқ бўлган майдонларни зудлик билан юмшатиш ва тупроқдан ортиқча намни қочириш ишларини амалга ошириш ёғзани ниҳол касаликларига чалинишини олдини олишда муҳим агротехник тадбирлар бўлиб ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Алимухаммедов С.Н. Хўжаев Ш.Т. Ёза зараркундалари ва уларга қарши кураш.-Тошкент: "Меҳнат", 1991.
2. Аҳмедов Ж., Нуридинов А ва бошқалар. Танлов нав синовида ўрганилган янги яратилган тизмалари ҳосилдорлиги ва қимматли хўжалик белгилари. Қишлоқ хўжалигида янги тежамкор агротехнологияларни жорий этиш. 274-278-б. Тошкент-2011.
3. Белоусов М.А. Физиологические основы корневого питания хлопчатника. Ташкент-1964.
4. Доспехов . Методика полевых опытов. УзНИИХ (2007).
5. Справочник по хлопководству. "Ўзбекистон" нашриёти. 1981й. 314-328б.
6. Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигида ишлатиш учун рухсат этилган пестицидлар ва агрохимикатлар рўйхати. Тошкент "Ruta-Print" 2018.
7. "Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигида ўсимлик зараркундалари, касалликларига ва бегона ўтларга қарши фойдаланиш учун рухсат этилган кимёвий ва биологик химоя воситалари, дефолянтлар ҳамда ўсимликларнинг ўсишини бошқарувчи воситалар рўйхати"га қўшимчалар.-Тошкент: "NISO POLIGRAF", 2018.

УО'Т: 633.1.635:11

SOYA NAVLARINING O'SISHI VA RIVOJLANISHIGA EKISH ME'YORINING TA'SIRI

Mallayev Muslim Xushnazar o'g'li, tayanch doktorant,
Xamrayev Olim Baxodirovich, tayanch doktorant,
Nomozov Ramazon Karim o'g'li, tayanch doktorant,
To'rayev Sohob Musurmonovich, mustaqil izlanuvchi,
 Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti.

Annotatsiya. Maqolada Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tajriba maydonchasida va "Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlar texnologiyalari" kafedrasida laboratoriyasida olib borilgan tadqiqotlar haqida ma'lumotlar berilgan. Tadqiqotda kuzatish, taqqoslash va eksperimental tajriba metodlaridan foydalanilgan. Respublika aholisini don maxsulotlari bilan ta'minlash vazifasini bajarish muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan bir qatorda hozirgi kunda qishloq xo'jaligida oqsil ishlab chiqarish eng katta muammolardan biri hisoblanadi. Albatta bu muammani yechimini yechishda dukkakli don ekinlaridan soya o'simligining ahamiyati kattadir. Tadqiqotimiz davomida soya navlarining o'sishi va rivojlanishiga ekish me'yorining ta'siri o'rganilib chiqilgan.

Kalit so'zlar: eksperimental, taqqoslash, Sevinch, Madad, O'zbek-6, agrotexnika, g'unchalash, gullash.

Аннотация. В статье приведены сведения об исследованиях, проводимых на экспериментальной площадке Предпринимательско-педагогического института им. Денова и лаборатории кафедры «Биологии и технологии сельскохозяйственной продукции». В исследовании использовались наблюдательный, сравнительный и экспериментальный методы. Важно выполнить задачу по полному обеспечению населения республики зерновой продукцией. Кроме того, производство белка сегодня является одной из самых больших проблем в сельском хозяйстве. Конечно, большое значение в решении этой проблемы имеет соевый завод. В ходе наших исследований было изучено влияние нормы высева на рост и развитие сортов сои.

Ключевые слова: опыт, сравнение, Севинч, Мадад, узбек-6, агротехника, бутонизация, цветение.

Abstract. The article provides information about research conducted at the Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy and the laboratory of the Department of «Biology and Agricultural Product Technologies». Observational, comparative and experimental methods were used in the research. It is important to fulfill the task of fully providing the population of the republic with grain products. In addition, protein production is one of the biggest problems in agriculture today. Of course, the soybean plant is of great importance in solving this problem. In the course of our research, the effect of sowing rate on the growth and development of soybean varieties was studied.

Key words: expert, comparison, Sevinch, Madad, Uzbek-6, agrotechnics, humming, flowering.

Kirish. Tadqiqot ishlari Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti dala tajriba maydonchasida hamda "Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlar texnologiyalari" kafedrasida laboratoriyasida qisman Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida 2021-2023-yillar davomida olib borilgan. Tadqiqot uchun soyaning yangi istiqbolli "Sevinch", "Madad" va "O'zbek-6" navlari asos qilib olindi.

Soyaning istiqbolli yangi yaratilgan navlarining muqobil ekish muddati va me'yorini to'g'ri belgilash hamda ular asosida soya navlaridan yuqori hosil olish, tadqiqot ishining asosiy vazifasi hisoblanadi.

Soyaning yangi navlarini ekish muddatlari va me'yorlarini hosildorlikga ta'sirini ishlab chiqish ustida muntazam tadqiqotlar olib borilmoqda. Soyani ekish uchun, ekish muddat va me'yorlari hamda tuproqda issiqlik, namlik va havo harorati qulay bo'lishi juda katta ahamiyatga egadir. Agroteknik tadbirlardan eng muhimi ekish muddatlarni to'g'ri belgilashdir. O'simlik o'sishiga ildizida tuganak to'plashiga va hosildorligi yuqori bo'lishida muqobil ekish muddatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Demak, eng avvalo soya navlari va ularni ekish meyorlarini to'g'ri tanlansa yuqori hosil olish imkoniyati vujudga keladi. Tajribalarni biz o'tloqi bo'z tuproqda soya navlari va ularning ekish meyorining o'simlik o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'sirini o'rgandik.

Tadqiqot materiallari va uslublari. Tadqiqotlar Surxondaryo viloyati Denov tumanida joylashgan Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tajriba dala maydonchasida, o'tloqi bo'z tipidagi, shorlanmagan tuproqlarda olib borildi. Dala tajribalarini olib borishda Biologiya va qishloq xo'jalik mahsulotlar texnologiyalari kafedrasida ishlab chiqilgan ilmiy uslublar asosida o'tkazildi. Ilmiy-tadqiqotlar davomida olingan ma'lumotlar B.A.Dospexov (1985) uslubida statistik ishlovdan o'tkazildi.

Tanlab olingan uchastkaga soyaning "Sevinch", "Madad" va "O'zbek-6" navlari ekib tajriba amalga oshirilgan. O'simliklar qator oralig'i 60 sm, 70 sm qilib yakka qatorda va 90 sm qilib qo'sh qatorda ekib o'rganildi. Egat balandligi taxminan 20-25 smni tashkil qilgan holda urug' ekish chuqurligi esa 4-5 sm chuqurlikka ekildi. Namuna olish taqsimoti qatorlar va yakka o'simliklarda tasodifiy ravishda edi. Barcha turdagi namunalar bir vaqtning o'zida qog'oz paketlarga yig'ilib, laboratoriyada tahlil qilindi. Namuna olishda har bir navdan bir xil miqdorda to'plandi.

Ekish me'yorini belgilash usullari. Ma'lum bir hududga ekish uchun o'simlik navlari tanlanar ekan, albatta o'simlik navlarining o'suv davri davomiyligi, yuqori hosil berishi, urug'ining unuvchanligi, kasalliklarga chidamliligi, dukkaklarining yorilib ketmasligi,

hosilni yig'ishda urug'ning maydalanmasligi, pastki dukkaklarining yerdan balandlikda joylashish holati va boshqa agroteknik tadbirlarga hamda soyadan qaysi maqsadda foydalanishi kabilar e'tiborga olinish lozim.

Soya yetishtirish texnologiyasi asoschilaridan biri V.F.Baranov ertapishar navlar qator orasi 15 sm bo'lganda 800-900 ming tup, keng qatorlab 45 sm bo'lganda 700-750 ming tup ekilganda, pishish davrida qator orasi 15 sm qilib ekilgan variantlarda 550-650 ming tup, keng qatorlab (45 sm) ekilganda 450-500 ming tup o'simlik saqlanib qolishini aniqladi [1].

D.Yo.Yormatova olgan ma'lumotlariga ko'ra, Do'stlik navi uchun eng muqobil ekish me'yori 70 kg/ga, Uzbek-2 navi uchun muqobil ekish me'yori 80 kg/ga, ekish me'yori bundan oshirilganda bir gektardan olinadigan ko'k poya va quruq poya hosildorligi kamayib boradi. Do'stlik navini 70 kg/ga ekilganda poyasi va donida ham oqsil miqdori yuqori bo'ladi. Ekish me'yorini to'g'ri belgilash, kimyoviy tarkibining sifatli va hosildorlikning yuqori bo'lish imkonini beradi [2].

Ekish usuli va ekish me'yorini har bir xo'jalik joyining tuproq-iqlim sharoitiga etibor berib belgilash yuqori hosil olishni taminlaydi.

Ekish me'yorini oshirish hosildorlikka sezilarli ta'sir qiladi. Shuning uchun muqobil ekish me'yorini, har bir navga nisbatan belgilash zarurdir. Soya o'simligi navlarida shoxlanish kam bo'lganda dukkaklari pastda joylashadi. Bu esa yig'im-terimda hosildorlikni kamaytirishga olib keladi. Ekish me'yori oshirilsa soya o'simligining poyasi ingichka, buyi esa baland bo'ladi.

Urug'larning katta kichikligi (hajmi)ga va ekish maqsadi (don olish yoki uy hayvonlari uchun yashil massa olish)ga qarab o'zgaradi. Mayda urug'li navlarda ekish me'yori 65-70 kg/ga, o'rtacha urug'li navlar 75-80 kg/ga, yirik urug'li navlarda esa 85-90 kg/ga miqdorda ekish maqsadga muvofiqdir. Albatta, bu vaqtda urug'larning unuvchanligi hisobga olinishi lozim. Ekish usuli keng qatorlab, qator oralari esa 60 cm, 70 cm, 90 cm kenglikda Punktir usulida bo'ladi (1-jadval).

1-jadvaldan bizga ma'lumki Punktir usulida ekilganda nisbiy hisobda olinganda qator oralig'i 60 cm va tup oralig'i esa 3 sm qilib ekilganda yirik hajmli urug'ga ega bo'lgan soya navlari 83,3 kg mayda hajmli urug'ga ega bo'lgan soya navlari esa 72,2 kg ekilishi hisobga olingan. Mos ravishda 1 ga maydonda tup soni 555555 dona bo'lishi hisoblab chiqilgan. Qator oralig'i va tup oralig'i uzaytirilgan sari ekiladigan urug' miqdori va maydondagi o'simlik tup soni ham kamayib boradi. Lekin qator oralig'i 90 cm bo'lib, tup oralig'i esa 2 cm bo'lganda yana tup soni qaytadan

Soyaning ekish sxemasi bo'yicha urug' sarfi me'yori.

№	Urug'likni ekish tizimi	Nazariy ko'chat soni, tup	1000 dona urug'ning vazni, g.	Sarflanadigan urug'lik me'yori, kg.
1.	60 cm x 3 cm x 1	555555	150	83,3
			130	72,2
2.	60 cm x 4 cm x 1	416666	150	62,5
			130	54,2
3.	60 cm x 5 cm x 1	333333	150	49,9
			130	43,3
4.	70 cm x 3 cm x 1	476190	150	71,4
			130	61,9
5.	70 cm x 4 cm x 1	357142	150	53,5
			130	46,4
6.	70 cm x 5 cm x 1	285714	150	42,8
			130	37,1
7.	90 cm x 2 cm x 1	555555	150	83,3
			130	72,2
8.	90 cm x 3 cm x 1	370370	150	55,5
			130	48,1
9.	90 cm x 4 cm x 1	277777	150	41,6
			130	36,1

ko'payganini ko'rishimiz mumkin. Soya yashil massasi uchun ekilganida albatta ekish me'yori 1,5-2 marta ko'p bo'ladi.

Ma'lumotlarga ko'ra soyaning ertapishar navlari uchun 1600 – 1700°C, o'rta pishar navlar uchun 2000 – 2200°C, kechpishar navlar uchun esa 2800 – 3000°C harorat zarurdir. Shuningdek, soya yorug'likka talabchan, qisqa kunlik o'simlik hisoblanadi, ammo ertapishar navlar kunning uzayishidan unchalik ta'sirlanmaydi[4].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, tajriba uchaskasidagi bo'z tuproqlarda turli soya navlarining o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ekish me'yorining ta'siri yuzasidan izlanishlar olib borildi.

Natija va ularning muhokamasi: olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ma'lumotlar aniqlandi.

D.Yo.Yormatova [4] ma'lumotlariga ko'ra, o'simlikning birinchi rivojlanish fazasi haroratga, tuproq namligiga, urug'ning tushish chuqurligiga va nav xususiyatlariga qarab 5-6 kundan 15-20 kun va undan ham ortiqroqqa cho'zilishi mumkin. Ayni shu davrda maysalarni begona o'tlar siqib qo'yishidan saqlash lozim. Shu fazada o'simlik baqquvat ildizlarga ega bo'lsa, keyingi rivojlanish fazalarida ham jadal o'sadi.

Tajribamizda maxalliy o'rtapishar "Sevinch", "Madad" va "O'zbek-6" navlarining o'sishi va rivojlanishiga turli ekish me'yorlarining ta'sirini aniqlanishi ko'zda tutilgan. Chunki o'simlikning rivojlanish fazasiga oziqlanish maydoni katta ta'sir ko'rsatadi. Har bir o'simlikning oziqlanish maydoni yetarlicha bo'lganda, albatta fazalar rivojlanishi erta boshlanib, sog'lom, baqvvat nihollarning dukkaklari nisbatan kechroq pishib yetiladi.

Oziqlanish maydoni kichik bo'lganda poyalar ingichka, barg sathi va dukkaklar kichik bo'lib, uz navbatida pishishi tezlashadi.

Tajribada ekish me'yori turlicha bo'lganda soya navlarining o'sib rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi kuzatildi. Turli xil soya navlari 60 kg/ga, 70 kg/ga, 80 kg/ga ekish me'yorlarida navlarning o'suv davri davomida rivojlanish fazalari o'rtasidagi muddatga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Ma'lumki, soya navlarining muqobil ekish me'yorini belgilash hisobiga yuqori hosil olishga erishiladi. Tadqiqotlarimizda turli soya navlarining rivojlanish fazalari va ularning turli ekish me'yorlarida variantlarda o'simlik unib chiqishidan urug'lari pishib yetilguncha bo'lgan muddat tajriba davomida hisoblanib borildi.

Tajribamizda ekish me'yori 60 kg/ga, 70 kg/ga, 80 kg/ga bo'lgan soya navlarida fenologik fazalarning shakllanishi bo'yicha o'rtacha yillik natijalar o'rganildi.

Tadqiqot natijalari va xulosalar: Tajribamizda soya navlarining rivojlanish fazalari shakllanishini fenologik tahlillari shuni ko'rsatdiki, o'rganilgan barcha ekish me'yorlarida unib chiqish, birinchi uchtalik barg hosil bo'lishi yoki dastlabki rivojlanish fazalarida katta farq deyarli sezilmadi.

Ekish me'yorining o'zgarishi urug'ning unib chikishiga ta'sir qilmadi, barcha variantlarda urug'lar bir xilda unib chiqdi.

Qo'llanilgan barcha ekish me'yorlarida urug' unib chiqishidan to birinchi uchtalik barg hosil bo'lgunga qadar oradan 5-7 kun o'tganligi kuzatildi.

Tajribamizda ekish me'yori oshirilgan sari navlarda g'unchalash fazasi 1-3 kunga oldin boshlanganligi aniqlandi. Sevinch navi esa nisbatan ertaroq g'unchalaganligi kuzatildi.

Madad navi ekish me'yori 60 kg/ga qilib belgilanganda 32-35 kunda; 70 kg ekilganda 30-32 kunda; 80 kg gacha oshirilganda 27-29 kunda gullay boshlaganligi kuzatildi.

Ekish me'yori oshgan sari navlarning biologik hususiyatlariga ko'ra o'suv davri qisqarib bordi.

Xulosa tarzida shuni ta'kidlab o'tamizki, barcha ekish me'yorlarida unib chiqish, birinchi uchtalik barg hosil bo'lishi

fazalarida katta farq deyarli sezilmadi. G'unchalash, gullash, pishib-yetilish fazalarida barcha ekish me'yorida 3-6-9 kun oralig'ida farq qilganligi aniqlandi.

Ekish me'yori oshirilgan sari barcha navlarda o'suv davri qisqarib bordi. Demak oziqlanish maydonining katta yoki kichikligi soya navlarining rivojlanish davri uzun yoki qisqa bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR:

1. Baranov V.F. Соя биология и технология возделывания. - Краснодар.: Советская Кубань, 2005,- 433 с.
2. Yormatova D.Yo, Mamurov A. Eng yaxshi takroriy ekin // Uzbekistan qishloq xo'jaligi jurnali. - Toshkent, 2007. - № 6. 17 b.
3. Yormatova D., K. Yorov, M. Hamroyeva G'o'za qator orasiga soya ekish va moyli ekinlarni yetishtirish Toshkent-2021. 106 b.
4. Yormatova D. O'simlikshunoslik Toshkent "sharq" – 2002. 320 b.
5. Yormatova D. O'simlikshunoslik. - Toshkent., 2001. -110-121 b.

UO'T: 6331.631.8

SURXONDARYO VILOYATINING YENGIL QUMOQ TUPROQLARIDA DUKKAKLI EKINLARDAN YUQORI HOSIL YETISHTIRISHDA MINERAL O'G'ITLAR ME'YORLARINING TA'SIRI

Xursanov Ulug'berdi Choriyevich,
magistrant.

Annotatsiya. Ushbu maqolada qumli cho'l tuproqlarida mosh o'simliklarining noyob o'g'itlash talablarini va qurg'oqchil muhitda mosh o'simliklari uchun ozuqa moddalariga bo'lgan talablarni o'rganish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: qumli cho'l, qurg'oqchil muhit, qurg'oqchil muhit, moss o'simliklari, sxema ekilish, ozuqa maydoni, sug'orish, agrotexnika, dukkakli ekinlar, tuproqlarining kislotali tabiati.

Аннотация. В данной статье представлено исследование уникальных потребностей моховых растений в песчаных пустынных почвах в удобрениях, а также исследование потребностей моховых растений в питательных веществах в засушливой среде.

Ключевые слова: песчаная пустыня, аридная среда, аридная среда, моховые растения, схема посадки, кормовая площадь, орошение, агротехника, бобовые, кислый характер почвы.

Abstract. This article presents a study of the unique fertilizer needs of moss plants in sandy desert soils, as well as a study of the nutrient requirements of moss plants in arid environments.

Keywords: sandy desert, arid environment, arid environment, moss plants, planting pattern, feeding area, irrigation, agricultural technology, legumes, acidic soil.

Qumli cho'l tuproqlarida mosh o'simliklarining noyob o'g'itlash talablarini o'rganish orqali biz ularning o'sishini yaxshiroq qo'llab-quvvatlashimiz va bu nozik ekotizimlarni saqlashga hissa qo'shishimiz mumkin. Tuproqning haddan tashqari quruqligi va ozuqa moddalarining kamligi mosh o'simliklarining rivojlanishini qiyinlashtiradi. Tuproqning qumli tabiati tufayli o'g'itni qo'llash samarasiz bo'lishi mumkin, chunki u tezda yuvilib ketishi yoki mosh o'simliklarining ildiz zonasiga kira olmasligi mumkin. Bundan tashqari, mosh o'simliklarining nozik tabiati o'simliklarga zarar etkazmasdan kerakli oziq moddalar bilan ta'minlaydigan mos o'g'itni topishni qiyinlashtiradi. Qurg'oqchil muhitda mosh o'simliklari uchun ozuqa moddalariga bo'lgan talablarni o'rganish Qumli cho'l tuproqlarida mosh o'simliklarini urug'lantirish ularning qurg'oqchil muhitda o'sishi va sog'lig'ini yaxshilash uchun juda muhimdir. Bunday sharoitda mosh o'simliklarining ozuqa moddalariga bo'lgan talablari optimal rivojlanishni ta'minlash uchun diqqat bilan o'rganilishi kerak. Qurg'oqchil muhitda mosh o'simliklarining o'ziga xos ozuqaviy ehtiyojlarini tushunish

muvaqqiyatli urug'lantirish uchun juda muhimdir.

Tuproqning qumli tabiati tufayli mosh o'simliklari tomonidan ozuqa moddalarining mavjudligi va o'zlashtirilishi o'ziga xosdir va alohida e'tibor talab qiladi. Qumli cho'l tuproqlarida mosh o'simliklarini o'g'itlashning eng yaxshi usullarini o'rganish qurg'oqchil muhitda ularning chidamliligi va hayotiyligini qo'llab-quvvatlashning kalitidir. Ularning ozuqa moddalariga bo'lgan talablarini qondirish orqali biz ushbu qiyin sharoitlarda mosh ekotizimlarining barqarorligini oshirishimiz mumkin. Tuproq tarkibi va uning mosh o'simliklarining urug'lanishiga ta'siri. Qumli cho'l tuproqlarida mosh o'simliklarini o'g'itlash tuproq tarkibiga ehtiyotkorlik bilan e'tibor berishni talab qiladi. Qumli tuproqlarda ozuqa moddalari past va suvni yomon ushlab turadi, bu mosh o'simliklarining rivojlanishini qiyinlashtiradi. Tuproq tarkibining mosh o'simliklarining urug'lanishiga ta'siri katta. Qumli tuproqlarda organik moddalar va muhim ozuqa moddalarining etishmasligi mosh o'simliklarining umumiy salomatligi va o'sishiga ta'sir qiladi, bu ularni stress va kasalliklarga ko'proq moyil qiladi.